



Shoxida EGAMOVA,

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti, f.f.n

E-mail: egamovashohida2@gmail.com

F.f.n., dotsent A.Ubaydullayev taqrizi asosida

TERMS EXPRESSING THE MEANING OF MILITARY POSITION, RANK IN ALISHER NAVOI'S EPIC POEM "SADDI ISKANDARIY"

Annotation

This article discusses the military terms used in the vocabulary of Alisher Navoi's epic poem "Saddi Iskandariy". Military terms expressing the meaning of military position, career, and title are linguistically analyzed by dividing them into a number of lexical-semantic groups, including terms expressing military position, rank, terms denoting a person performing a certain activity in combat operations, terms denoting a person using weapons, terms denoting a person in the army, etc.

Key words: Soldier, position, rank, military position, military action, semantic group, semantic field, battle, armament, army composition.

ТЕРМИНЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ЗНАЧЕНИЕ ВОЕННОГО ПОЛОЖЕНИЯ, ПОЗИЦИИ, ЗВАНИЯ В ЭПИЧЕСКОЙ ПОЭМЕ АЛИШЕРА НАВОИ "САДДИ ИСКАНДАРИЙ"

Аннотация

В этой статье рассматриваются военные термины, использованные Алишером Навои в словаре эпоса "Садди Искандарий". Военные заимствования, выражающие значение воинской должности, чина, звания, анализируются лингвистически, разделяясь на ряд лексико-семантических групп, включающих такие термины, как военная должность, термины, обозначающие звание, термины, обозначающие человека, выполняющего определенную деятельность в боевых действиях, термины, обозначающие человека, использующего оружие, термины, обозначающие человека в составе армии.

Ключевые слова: Военный, должность, звание, воинская должность, военное действие, семантическая группа, семантическое поле, бой, вооружение, состав армии.

ALISHER NAVOIY "SADDI ISKANDARIY" DOSTONIDA HARBIY LAVOZIM, MANSAB, UNVON MA'NOSINI IFODALOVCHI ISTILOHLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni so'z boyligida qo'llanilgan harbiy atamalar xususida so'z yuritilgan. Harbiy lavozim, mansab, unvon ma'nosini ifodalaydigan harbiy istilohlar bir qator leksik-semantik guruhlariga ajratilgan holda lisoniy tahlil etilgan, jumladan, harbiy lavozim, mansabni ifodalovchi terminlar, jang harakatlari muayyan faoliyatni bajaruvchi shaxsni bildiruvchi terminlar, qurol-aslahani ishlatuvchi shaxsni bildiruvchi terminlar, qo'shin tarkibidagi shaxsni bildiruvchi terminlar kabi.

Kalit so'zlar: Harbiy, lavozim, mansab, unvon, harbiy lavozim, harbiy harakat, semantik guruh, semantik maydon, jang, qurol-aslah, qo'shin tarkibi.

Kirish. Dunyo tilshunosligida terminologiya har bir tilning o'ziga xos imkoniyatlarini namoyon etuvchi va, shubhasiz, uning lug'at qatlamini boyitishga xizmat qiluvchi til rivojlanishining ichki mexanizmi sifatida tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelmoqda. Jahon tilshunosligida milliy tillarning paydo bo'lish, shakllanish, rivojlanish bosqichlari turli aspektlar va nuqtayi nazarlardan o'rganilgan [9]. Ushbu maqolada asosiy e'tibor Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" asari so'z boyligidagi harbiy terminlarga, jumladan, harbiy lavozim, mansab, unvon ma'nosini ifodalovchi istilohlarning leksik-semantik tadqiqiga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So'nggi yillarda tadqiqotchilarimiz tomonidan Alisher Navoiy asarlari leksikasi lisoniy xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan bir necha ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Jumladan, M.Tojiboyeva Alisher Navoiyning "Ilk devon"idagi arabcha so'zlarni leksik-semantik talqini ustida izlanish olib bordi [12], D.Abduliyeva Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" hamda "Tarixi muluku ajam" asarlarining so'z boyligini tarixiy-etimologik, funksional-semantik va semantik-stilistik nuqtai nazardan o'rgandi [1], Sh.Xo'janiyozova Alisher Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlari leksikasi tadqiqini amalga oshirdi [15], X.Muxammadiyev Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlaridagi maishiy leksika tadqiqini olib bordi [11], N.Umarovning ilmiy ishi Alisher Navoiy asarlarida faol lug'aviy konseptlarning olamni lisoniy idrok etishdagi o'rmini aniqlashga bag'ishlangan bo'lib, unda eski o'zbek tilidagi konsept va kategoriyalarning milliy-lisoniy

manzaradagi o'rni ochib berilgan [13]. A.Mavlonov tadqiqotida esa, Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida qo'llanilgan terminlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili amalga oshirgan [10].

Tahlil va natijalar. "Saddi Iskandariy" dostoni so'z boyligidagi harbiy ish va harbiy san'atga oid terminlar, tushunchalar bilan bog'liq semantik maydon harbiy harakatlarda ishtirok etuvchi shaxs, qo'shin turlari, harbiy qism va bo'linmalarni, jang usullari, qurol-yarog', harbiy inshoot, harbiy harakatlar bilan bog'liq tushunchalarni aks ettiruvchi terminlar guruhini o'z ichiga oladi. Mazkur semantik guruhlarni o'z navbatida tuzilish va mazmun jihatdan yanada kichikroq doiradagi leksik birliklarga ajratib o'rganish mumkin. Masalan, harbiy lavozim, mansab, unvon ma'nosini ifodalovchi istilohlar quyidagi leksik-semantik guruhlardan iborat birliklarni qamrab oladi:

1). Harbiy lavozim, mansabni ifodalovchi terminlar: sarxayl (f. sarkarda, lashkarboshi, qo'mondon; boshliq), shaypol (yuqori darajali sarkarda), xoqon (xonlar xoni, xoqon; oliy bosh qo'mondon), cherigchi (askar, jangchi; lashkarboshi), peshvo (f. sardor, boshliq, qo'mondon), qosid (ar.xabarchi; elchi), sipohiy (harbiy hizmatchi, amaldor), sipahdor/sipohdor (sarkarda, lashkarboshi; hukmron), sipahbad (f. qo'mondon, sarkarda, lashkarboshi), farmondih (hokim, shoh; farmon beruvchi), lashkarkash (f.sarkarda, lashkarboshi, qo'mondon), ulyo (eng oliy, eng yuksak), mahdi ulyo (yuksak mavqeli (ayol) kishiga beriladigan unvon), xoqon (shox, xonlar xoni, xoqon), chobuki jangjo'y (urushqoq, jangovar chavandoz), chobuksuvor (chavandoz, otni mahorat bilan boshqaruvchi), o'ng (qo'shinning

o'ng qanoti sarkardasi), amal (a. ish; amal, lavozim), taxtgir (g'olib, qahramon, kuchli shoh; taxt egallovchi), toju kuloh (shohlik mansabi), va h.k.;

2). Jang harakatlarida muayyan faoliyatni bajaruvchi shaxsni bildiruvchi terminlar: sinonvar (nayzador, nayza bilan qurollangan jangchi), aduvband (qf. yovni asir oluvchi, bandi qiluvchi), ko'szan (f. do'mbira chaluvchi, nog'orachi), marzbom (f. chegarachi, soqchi), munosib (ar. hisobchi, sanoqchi): nigohbon (f. 1.qorovul, qo'riqluvchi, posbon, soqchi; 2. boshliq, rahnamo, hokim), qosid (ar.xabarchi; elchi), tig'zan (askar, jangchi), tig'liq (tig' qilich ko'targan; qurollangan), xasmband (dushmani asir oluvchi), xozin (xazinachi, qo'riqchi; devonbegi), qa'lakan (f. qal'a atrofida choh, xandaq qazuvchi) va h.k.;

3). Qurol-aslahani ishlatuvchi shaxsni bildiruvchi terminlar: novakafkan (f. o'q otuvchi, mergan; o'q-yoy otuvchi), novakandoz (f.o'q otuvchi, o'q-yoy otuvchi), palorakfikan (f. nayzador, nayzaboz), nayzavar (f. nayza ko'tarib yuruvchi jangchi, nayza bilan qurollangan askar), novakafkan (f.o'q otuvchi, mergan; o'q-yoy otuvchi), novakandoz (f.o'q otuvchi, o'q-yoy otuvchi) va h.k.;

4). Qo'shin tarkibidagi shaxsni bildiruvchi terminlar: cherik//cherig (qo'shin, lashkar, askar; kuch, qudrat), sipah//sipoh (askar, qo'shin, lashkar), parxoshjuy (f. jangovar, botir; urishuvchi, solishuvchi) kabi.

Biz quyida asar so'z boyligida qo'llanilgan ba'zi bir istilohlarning leksik-semantik xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

Cherik/cherig istilohi dastlab qadimgi turkiy O'rxun-Enasoy toshbitiklari matnida qo'llangan [5]. "Harbiy yurish vaqtida oliy hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofiq yig'iladigan muntazam qo'shin" (O'TIL, IV, 475) ma'nosini ifodalaydigan ushbu istiloh "Saddi Iskandariy" dostoni tilida "qo'shin, lashkar, askar; kuch, qudrat" (ANATIL, III, 463) ma'nosida uchraydi:

Ki ne mulknfathi, edi ne bilod,

Ki qilsam cherik birla ani kushod. (SI, 313)

Cherik/cherig istilohi "cherik davri" birikma tarkibida kelib, "qo'shin atrofi, tevaragi; qo'shin joylashgan lager atrofi" ma'nosini ifodalaydi:

Tushulgach, cherik davrini shaq qilib,

Sipah hifzi aylarga xandaq qilib. (SI, 133)

"Cherik jam'i" birikma tarkibida esa, "qo'shin to'plash, yig'ish" kabi jangovar hatti- harakat ma'nosida uchraydi:

Bo'lub bois ul go'l, nodon ishi,

Cherik jam'ig'a chopti har yon kishi. (SI, 132)

"Cherik tushur" qo'shma fe'l tarkibida kelib, "lashkar totmoq, hujumga o'tmoq" ma'nosida namoyon bo'ladi:

Cherikni tushurdi keyinrak yonib,

Yurub hifz uchun davrig'a aylanib. (SI, 138)

Affiksal termin yasalishi umumadabiy so'zlarning hosil qilinishi singari juda qadimdan yetakchi va sarmahsul usul hisoblanadi. O'z vaqtida Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Ibn Muhanna lug'atlarida, XIII-XIV asrlarda turkiy til grammatikasiga doir arab tilida yaratilgan risolalarda, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zbek (turkiy) tili so'z yasalishi vositalari va yo'llari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan edi.

O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy "Muhokamat ullug'atayn" asarida -chi affiksining vazifasiga alohida diqqat qaratgan holda, uning qurchi, xizanachi, yarag'chi, chavganchi, nayzachi, shukurchi, yurtchi, shilanchi, axtachi, qushchi, barschi, qoruqchi, tamg'achi, jibachi, yorg'achi, halvachi, kemachi singari turfa mansab va rutbalarni ifodalashdagi faolligini ta'kidlaydi[7]. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida qo'llanilgan cherigchi istilohi ham

-chi affiksi yorrdamida hosil bo'lgan va "askar, jangchi, lashkarboshi" (ANATIL, III, 464) ma'nosini ifodalaydi:

Buzub qo'ryosin cherigchi kirib,

Uyidin necha shoh o'tun oyirib. (SI,129)

Asar matnida o'zlashma qatlamga oid shaypol [a. دالای شپول] istilohi "yuqori darajali sarkarda" ma'nosida ko'zga tashlanadi:

Sipahdorlar alar ichra shaypol o'lub,

Tahavvurda chun Rustami Zol o'lub. (SI,155)

"Changak" ma'nosini ifodalaydigan shast [f. شاست] o'zlashmasi ahli shast izofali birikma tarkibida kelib, "yoychilar, o'qchilar, yoy otuvchilar" ma'nosida uchraydi:

Tura barcha qullob ila bandu bast,

Kamin aylabon keunida ahli shast. (SI, 218)

"Sarkarda, lashkarboshi, qo'mondon; boshliq" ma'nosini ifodalaydigan sarxayl [a.f. إلى سرخ] o'zlashmasiga -liq affiksini qo'shish orqali hosil bo'lgan sarxaylliqlik istilohi asar so'z boyligida "sardorlik, sarvarlik" ma'nosida namoyon bo'ladi:

Zihi anbiyo xaylining sarvari,

Boshing uzra sarxaylliqlik gavhari. (SI, 120)

"Mas'ul vazifa, mansab"(O'TIL, I, 99) ma'nosini ifodalovchi amal [a. - عمل; amal, lavozim] istilohi "Saddi Iskandariy" dostoni so'z boyligida amal ahli izofali birikma tarkibida kelib, "mansabdorlar"(NTL, I, 71) ma'nosida uchraydi:

Amal ahlig'a qildi mashg'ulluq,

Yomonlarg'a yetkurdi ma'zulluq. (SI, 114)

Asar tilida "eng oliy, eng yuksak"(ANATIL, III, 285) ma'nosini ifodalaydigan ulyo [a. إلى عل] leksemasi mahdi ulyo izofali birikma tarkibida kelib, "yuksak mavqeli (ayol) kishiga beriladigan unvon" semasini anglatgan:

Hamul Ravshanak mahdi ulyo o'lub,

Shabistonida majlisopo bo'lub. (SI, 298)

"Podshoh, xon, amir saroyida uzoq xizmat qilgan lavozimli kishi, amaldor" ma'nosini ifodalaydigan sipah/sipoh [f. سپاه - harbiy birlashma; qo'shin, armiya] termini Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni so'z boyligida "askar, qo'shin, lashkar; sipohiy, harbiy kishi" (THTL, 246) ma'nosida ko'zga tashlanadi:

Bu yanglig' sipah birla doroyi Rum,

Sipohin yasab, o'ylakim, naxli mum. (SI, 156)

Asar tilida ot turkumidan ot termin yasovchi -iy affiksli sipohiy [f. سپاه یی] istilohi "harbiy xizmatchi, amaldor" ma'nosini kasb etadi:

Chu qilmish sipohiyg'a tashbih ani,

Erur nukta o'yla tanbih ani. (SI, 257)

Shu asosda asar matnida sipahbad [f. سپاه بد] forscha o'zlashma ham uchraydi va "qo'mondon, sarkarda, lashkarboshi" ma'nosini ifodalaydi:

Qutayf ahli, Bahraynu Bag'dod ham,

Sipahbad, alarg'a kelib Gustaham. (SI, 133)

Sipoh tort= qo'shma fe'l tarkibida kelib, "lashkar tortmoq" ma'nosida uchraydi:

Sipoh tortmoq vaqti ham uldurur,

Kishi har ish aylay desa yo'ldurur. (SI, 282)

Sipah tushur= qo'shma fe'l tarkibida kelib, "lashkarni joylashtirmoq" ma'nosida ko'zga tashlanadi:

Aduv vahmidin bo'lmayin ishdast,

Ko'rub yer, sipohin tushurdi durust. (SI, 271)

Sipah chek= qo'shma fe'l tarkibida kelib, "lashkar yubormoq" ma'nosini ifodalaydi:

Sipoh chektimu zohir ettim hilof

Ayon ayladim o'trusida masof. (SI, 264)

Fors-tojik tiliga taalluqli sarmahsul -dor qo'shimchasi yordamida hosil bo'lgan sipahdor istilohi asar tilida "sarkarda, lashkarboshi; hukmron" ma'nosida uchraydi:

Chu atrofida shohlar o'lturub,

Sipohdorlar xizmatida turub. (SI, 260)

"Jo'nab ketayotgan; intiluvchi, qasd qiluvchi; xabarchi, elchi, chopar" ma'nosini ifodalaydigan qosid [a. قاسد] (O'TIL, IV, 240) istilohi "Saddi Iskandariy" dostoni tilida "xabarchi, elchi" (ANATIL, IV, 67) ma'nosini kasb etadi:

Chu o'lturdi qosid tikib yerga ko'z,

Ne yora anga so'rmayin derga so'z. (SI,130)

Bundan tashqari "qosidi kordon" izofali birikma tarkibida kelib, "donishmand elchi" (ANATIL, III, 463) ma'nosida voqelanadi:

Vagar o'zga aytilsa so'z nosavob,

Erur qosidi kordondin javob. (SI, 268)

Hozirgi o'zbek adabiy tilida "ma'lum bir soha yoki ishda yetakchi, ilg'or kishi" semasini ifodalaydigan [f. شواپ - rahnamo, rahbar ustoz] (O'TIL, III, 250) peshvo istilohi doston tilida "sardor, boshliq, qo'mondon" ma'nosida ishlatiladi:

Hamul mag'rib ahlini boshlab Tali',

Arab xaylining peshvosi Vaki'. SI(X) 77.

“Qarab turuvchi, boshqarib turuvchi” [f. نگهبان -qarab turuvchi, qorovul] (O‘TIL, III, 371) ma’nosini ifodalaydigan nigohbon istilohi Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonidan keltirilgan ushbu parchada “qorovul, qo‘riqllovchi, posbon, soqchi” ma’nosini ifodalaydi:

Erur olam nigohboni ul,

Nigohbon yo‘q Iskandari soniy ul. (SI, 319)

Ushbu istiloh quyidagi misrada esa, boshliq, rahnamo, hokim” ma’nosini anglatadi:

Qilib hukmkim: Mulk sultonlari,

Qamuq xaylu kishvar nigohbonlari. (SI, 132)

Lashkar [f. لشكر] tarixiy harbiy termin sifatida “qo‘shin, sipoh” ma’nolarini ifodalaydi. Lashkar termini umumeroniy so‘z bo‘lib, ayrim eronshunoslar fikricha, askar so‘zi uning arabiylashgan shaklidir [10]. Lashkarkash [f. لشكرش] istilohi “davlatning qurolli kuchlari majmuyi yoki uning bir qismi; qo‘shin, armiya” (O‘TIL, II, 25) ma’nosini ifodalaydigan lashkar [f. لشكر] o‘zlashmasiga kelib chiqishi forscha-tojikcha hisoblanuvchi –kash affiksini qo‘shish orqali yasalgan va asar tilida “lashkarboshi, qo‘mondon, sarkarda” ma’nolarida ko‘zga tashlanadi:

Yaqinidin anga tiyra bo‘ldi basar,

Ki lashkarkashi bo‘ldi Buxtun-nasar. (SI, 246)

Yana “Saddi Iskandariy” so‘z boyligida “lashkar” istilohi asosida hosil bo‘lgan lashkararo “g‘olib, yenguvchi; jangda qo‘shin safini tartibga soluvchi” (ANATIL, II, 169); lashkarshikan

“jangchi; saf buzari; g‘olib” (ANATIL, II, 169) terminlari ham uchraydi:

Chu ko‘ngli bo‘lub tinch, yuz tig‘zan,

Bari lashkarorou lashkarshikan. (SI, 260)

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni so‘z boyligida harbiy lavozim, mansab, unvon ma’nosini ifodalovchi istilohlarga oid terminlar, tushunchalar bilan bog‘liq semantik maydon harbiy lavozim, mansabni ifodalovchi terminlar, jang harakatlarida muayyan faoliyatni bajaruvchi shaxsni bildiruvchi terminlar, qurol-aslahani ishlatuvchi shaxsni bildiruvchi terminlar, qo‘shin tarkibidagi shaxsni bildiruvchi terminlar guruhini o‘z ichiga oladi. Ilmiy izlanish davomida shu narsa ayonlashdiki, yuqorida qayd etilgan semantik guruhlariga oid istilohlarning asosiy fondini o‘zlashgan qatlamga oid istilohlar tashkil etadi.

SHARTLI QISQARTMALAR

ANATIL - Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I-IV. -T., 1983-1985.

DLT - Devonu lug‘otit turk. Tom. I-III. Nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. -T., 1960-1963.

NAL – Navoiy asarlari lug‘ati. Porso Shamsiyev tahriri ostida. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti”. 1973. –782 b.

4. SI – “Saddi Iskandariy”. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 11-jild. – T.: “Fan”, 1993.

5. O‘TIL - O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.1-VI. -T., 2023.

ADABIYOTLAR

1. Абдувалиева Д. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. -Тошкент, 2017. -159 б.
2. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Тошкент: Фан, 1983. -157 б.
3. Berdak Yusuf. Navoiy tili lug‘ati. I jild. -T., 2018. - 495 b.
4. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. –Т.: “Фан”, 1990. - 213 b.
5. Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке. – Ташкент: Фан, 1990.
6. Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. -T., 2024. -341 b.
7. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. -T., 2019. -117 b.
8. Дадабоев Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати.- Т.: “Ёзувчи”, 1996. – 319.
9. Dustmurodov M. O‘xun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. -T., 2023. -149 b.
10. Mavlonov A. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llanilgan terminlarning tarkibiy-mazmuniiy tahlili. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. Avtoref. -T., 2024. -49 b.
11. Мухаммадиев Х. Алишер Навоий “Хамса” дostonларидаги маиший лексика. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. -Жиззах. 2022. -165 б.
12. Тожибоева М. Алишер Навоийнинг “Илк девон”идаги арабча сўзларнинг лексик семантик талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2001. -51 б.
13. Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: филол. фан. доктори (DSc) дисс... автореферати. -Фарғона, 2021.
14. O‘razboyev A. Ogahiy tarixiy asarlarida harbiy amaliyot va qismlar nomlari//Jahon harb ishi va harb san‘ati rivojida ajdodlar o‘rni: adabiy va tarixiy manbalar misolida” mavzusidagi ilmiy-amaliy yig‘in materiallari. -T., 2024. -146
15. Хўжаниёзова Ш. Алишер Навоий манокіб асарлари лексикаси. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. –Т., 2022. – 54 b.